

---

## TO'RT NAFAR OLTIARIQLIK NURONIYLAR KO'KRAK NISHONI BILAN TAQDIRLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 28 dekabrda «O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash «Nuroni» jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4906-sonli farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mehnat faxriysi» ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risida»gi 2017 yil 14 iyuldagi PQ-3133-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida «Nuroni» jamg'armasi Vasiylik Kengashi qarori bilan bir guruh yurtdoshlarimiz "Mehnat faxriysi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.



Taqdirlanganlar orasida bir guruh oltiariqlik mehnat faxriylarining ham borligi barchamizga faxr-iftixor tuyg'ularini bag'ishlaydi.

Xususan,

Roziqov Mashrabjon Abdurahmonovich, Rahmonov Halimjon Ismoilovich va Yuldoshev Nabijon Mirzayevichlar II-darajali,

Turg'unoy Ataqulov 3-darajali "Mehnat faxriysi" ko'krak nishonlari bilan mukofotlandilar.

Taqdirlanganlarga ko'krak nishoni, ular yashaydigan xonadonlar va uy-joylar eshiklariga o'rnatiladigan belgi hamda bir yo'la to'lanadigan pul mukofoti tantanali topshiriladi.

Mukofotlar muborak bo'lsin, aziz oltiariqlik nuroniylar!

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-05-21 17:22:02